

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MUXTOROVA INDIRABONU YASHARBEK QIZI**

**SAYYOHLARGA TRANSPORT XIZMATI KO'RSATISH SOHASIDAGI  
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati  
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
экономическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
economic sciences**

**Muxtorova Indirabonu Yasharbek qizi**

Sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik  
faoliyatini takomillashtirish.....3

**Мухторова Индирабону Яшарбек кизи**

Совершенствование предпринимательской деятельности в сфере  
оказания транспортных услуг туристам.....27

**Mukhtorova Indirabonu Yasharbek kizi**

Improvement of entrepreneurial activities in the field of providing  
transportation services to tourists.....53

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works .....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI**

**MUXTOROVA INDIRABONU YASHARBEK QIZI**

**SAYYOHLARGA TRANSPORT XIZMATI KO'RSATISH SOHASIDAGI  
TADBIRKORLIK FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH**

**08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti**

**08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati**

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy ottestatsiya komissiyasida B2025.1.PHD/Iqt5259 raqam bilan ro'yxatga olingan.**

Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyumi)) Ilmiy Kengash web-sifatida ([www.tsue.uz](http://www.tsue.uz)) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz))da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xo'jayev Fazliddin Elmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori,  
dotsent

**Rasmiy opponentlar:**

**Zufarova Nozima Gulamiddinovna**  
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Ravshanov To'yli Gulmurodovich**  
iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

**Yetakchi tashkilot:**

**Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Tadbirkorlik  
va biznes Oliy maktabi**

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil "14" "11" soat 16.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 232-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1806 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100003, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy. Tel.: (99871) 232-28-72; faks: (99871) 239-43-51; e-mail: [tdiu@tsue.uz](mailto:tdiu@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "31.10" kuni tarqatildi.  
(2025-yil "30" "16" dagi 52 raqamli reyestr bayonnomasi).



**G.Q. Abduraxmanova**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash raisi, iqtisodiyot fanlari  
doktori, professor

**O.D. Djurabayev**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash kotibi, DSc, professor

**Sh.A. Allayarov**  
Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik  
ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar  
raisi iqtisodiyot fanlari doktori,  
professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon iqtisodiyotida sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish, turizm industriyasining global raqobatbardoshligini ta'minlashda, logistik qo'llab-quvvatlash infratuzilmasini mustahkamlashda va turizm mahsuloti qiymat zanjirini to'liq shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu sohadagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali transport turlarining samaradorligi va integratsiyalashuv darajasi oshiriladi, turizm oqimlari uchun qulay, xavfsiz va barqaror sayohat muhiti yaratiladi, shuningdek, xizmat sifatining standartlashuvi va innovatsion yechimlarning joriy etilishi iqtisodiy o'sishni rag'batlantiradi. Shuningdek, transport xizmatlari orqali mehnat bozorida yangi ish o'rinlari yaratilib, mahalliy va xalqaro sarmoyalar jalb etiladi, bu esa mamlakatlarning eksportbop xizmatlar sektori ulushini kengaytirishga, yalpi ichki mahsulotda turizm xizmatlarining hissasini oshirishga bevosita ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sohadagi ijobiy istiqbollar BMT Turizm ishonch indeksida ham o'z ifodasini topgan bo'lib, jumladan, "2025-yil uchun bu ko'rsatkich 130 deb baholangan (shkala 0 dan 200 gacha, bu yerda 100 – oddiy, o'rtacha holatga to'g'ri keladi). Shuningdek, BMT Turizm bo'yicha ekspertlar guruhining taxminan 64 % a'zolari 2025-yilni 2024-yilga nisbatan "yaxshiroq" yoki "ancha yaxshi" bo'ladi, deb hisoblamogda"<sup>1</sup>. Bu esa, o'z navbatida, sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishni yaxshilashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Jahonda sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlar asosan raqamli texnologiyalar asosida intellektual transport tizimlarini joriy etish, "aqlli logistika" modellarini rivojlantirish, multimodal transport integratsiyasini ta'minlash, ekologik barqaror transport vositalaridan foydalanish hamda mobil ilovalar orqali sayohat marshrutlarini optimallashtirish masalalariga qaratilgan. Shuningdek, tadqiqotlar turizm logistikasining iqtisodiy samaradorligini baholash metodologiyasini takomillashtirish, sayyohlik transport xizmatlari narx-navo siyosatini bozor sharoitiga moslashtirish va mazkur xizmatlardan foydalanuvchi aholining turli ijtimoiy guruhlariga mo'ljallangan inklyuziv yondashuvlarni ishlab chiqish kabi ustuvor yo'nalishlarni qamrab olgan. Bundan tashqari, transport infratuzilmasini rivojlantirishda xususiy sektor ishtirokini kengaytirish va davlat-xususiy sheriklik modellari samaradorligini tahlil qilish orqali xizmatlar sifatini oshirishga doir tadqiqotlar ham ahamiyat kasb etmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etishda sayyohlik sohasini zamonaviy talablar asosida yanada rivojlantirish hamda sohaning barcha istiqbolli yo'nalishlarida sayyohlar sonini ko'paytirish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. "So'nggi yillarda turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetdi. Bu sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. Muhimi – o'tgan yili xorijiy sayyohlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o'tdi"<sup>2</sup>. Respublikaning sayyohlik

<sup>1</sup> Birlashgan Millatlar Tashkilotining (BMT) Turizm bo'yicha tashkiloti — UN Tourism tomonidan 2025-yil yanvar oyida e'lon qilingan World Tourism Barometer hisobotidan.

<sup>2</sup> Shavkat Mirziyoyev raisligida "Hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish" yuzasidan o'tkazilgan videoselektor yig'ilishidan

salohiyatidan to'liq va samarali foydalanish, birinchi navbatda transport-logistika va sayyohlik infratuzilmasidagi muammolarni tezkor hal etish, barcha turlaridagi (avtobus, avia va temiryo'l) transportlar uchun muntazam qatnovlarga chiptalar rasmiylashtirish nazarda tutuvchi elektron platformalar (ilovalar)ni takomillashtirish vazifalari sohada amalga oshirilayotgan muhim islohotlardan hisoblanadi. Mazkur vazifalar sayyohlik sohasini rag'batlantirish hamda sohada transport xizmatlari tizimini mustahkamlash va rivojlantirishga yo'naltirilgan ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruratini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yilida amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida", 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son "Respublikaga xorijiy sayyohlar oqimini keskin oshirish hamda ichki sayyohlikni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2021-yil 9-fevraldagi PF-6165-son "O'zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat sayyohligini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston – 2030" Strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmonlari, 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning sayyohlik salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy sayyohlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida", 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Sayyohlik yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari hamda sayyohlik sohasiga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasida sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi muammolarni o'rganish nisbatan yangi ilmiy yo'nalish hisoblanadi. Biroq yuk va yo'lovchilarni tashishga bo'lgan ehtiyoj insoniyat paydo bo'lgan davrdan beri mavjud bo'lib, bu yo'nalish dunyoning yetakchi iqtisodchi olimlari tomonidan ham chuqur o'rganilgan. Xususan, L.Leydesdorf, J.Masuda, F. Machlup, F.Knight, B.Santo, F.A.Hayek, R.E.Lucas, S.Metcalf, D.C.North, L.L. Ouellette, R.Ramlogan, P.M.Romer, J.A.Schumpeter, R.M.Solow kabi yirik iqtisodchilar o'zlarining klassik asarlari orqali bu sohaning nazariy va amaliy asoslarini shakllantirishga katta hissa qo'shganlar<sup>3</sup>.

---

(2025-yil, aprel).

<sup>3</sup> Leydesdorff L. The Knowledge-Based Economy: Modeled, Measured, Simulated. – Boca Raton: Universal Publishers, 2006. – 280 p. Masuda Y. The Information Society as Post-Industrial Society. – Tokyo: Institute for the

Sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishning ilmiy-metodologik asoslari Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) davlatlari olimlari tomonidan ham keng o'rganilgan. Jumladan, A.S.Kuskov, M.B.Birjakov, L.P.Shamatko, I.I.Butko, G.A.Papiryan, V.A.Kvartalnov, V.Y.Kotelnikova, A.O.Ovcharov kabi mutaxassislar o'z ilmiy izlanishlarida sayyohlikda transport xizmatlarini tashkil etishning nazariy asoslari va amaliy muammolarini batafsil yoritib bergan<sup>4</sup>.

Mustaqillik yillarida O'zbekiston olimlari tomonidan ham transport xizmatlarini ko'rsatish va servis sohasi bo'yicha qator ilmiy izlanishlar amalga oshirildi. Xususan, A.A.Eshtaev, M.Q.Pardayev, M.Muhammedov, B.Sh.Safarov, I.X.Nasimov, A.Sh.Berdimurodov, O.X. Hamidov, I.S.Tuxliyev, N.Navro'zzoda, N.S.Ibragimov, A.N.Norchayev, E.S.Xodjaniyozov kabi tadqiqotchilar ushbu sohadagi muammolarni o'rganishga katta hissa qo'shganlar<sup>5</sup>.

Mazkur olimlarning olib borgan ilmiy tadqiqot ishlari ushbu yo'nalishda qilingan ilmiy ishlar ichida o'z o'rnini va ahamiyatiga ega. Ammo sayyohlikda transport xizmatlari ko'rsatish sifatini yaxshilash, ichki sayyohlikni rivojlantirish muammolari yetarlicha tadqiq etilmagan. Bu o'z navbatida tanlangan mavzuning bugungi kunda dolzarb ekanligini anglatadi.

Hududlarda sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasining jadal rivojlanish sabablarini o'rganish, ushbu yo'nalishdagi faoliyatni kengaytirish hamda transport kompaniyalari iqtisodiy o'sishi va mintaqaviy transport tizimiga ko'rsatuvchi ta'sirini baholash masalalari bir qator olimlar tomonidan chuqur tadqiq qilingan. Jumladan, G.B. Kleiner, V.V.Kuleshov, D.A.Loginov, V.L.Makarov, O.N.Melnikov, R.M. Nizhegorodtsev, L.E.Nikiforova, A.N.Poluxina, B.N.Porfiriyev kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlari ushbu yo'nalishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqishga bag'ishlangan<sup>6</sup>.

Shu bilan birga ushbu sohada mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlarning ko'plab asarlari mavjudligiga qaramay, mamlakatlararo va mamlakatlar ichida differentsatsiyani kamaytirish yo'nalishi bo'yicha yo'lovchi tashish yo'nalishlari va xarajatini optimallashtirish masalalarida qo'shimcha tadqiqotlar talab etiladi.

---

Information Society, 1980. – 187 p. Machlup F. The Production and Distribution of Knowledge in the United States. – Princeton: Princeton University Press, 1962. – 416 p. Knight F.H. Risk, Uncertainty, and Profit. – Boston: Houghton Mifflin, 1921. – 381 p. Hayek F.A. The Road to Serfdom. – Chicago: University of Chicago Press, 1944. – 250 p. Romer P. M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. – 1990. – Vol. 98, No. 5. – P. S71–S102. Schumpeter J.A. Capitalism, Socialism and Democracy. – New York: Harper & Brothers, 1942. – 431 p. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70, No. 1. – P. 65–94.

<sup>4</sup> Кусков А.С., Биржаков М.Б., Шматко Л.П., Бутко И.И., Папирян Г.А., Кварталнов В.А., Котельникова В.Ю., Овчаров А.О. Основы туристской деятельности: учебник. – Москва: Юнити-Дана, 2010. – 543 с.

<sup>5</sup> Пардаев М.К. Развитие сферы услуг в Узбекистане: проблемы и перспективы. – Ташкент: Иктисод-фикузи, 2008. – 312 с. Мухаммедов М. Совершенствование транспортных услуг в условиях рынка. – Ташкент: Fan, 2011. – 228 с. Сафаров Б.Ш., Насимов И.Х. Сервисная деятельность и транспорт: теория и практика. – Ташкент: Iqtisodiyot, 2014. – 198 с. Наврўззода Б.Н., Ибрагимов Н.С. Логистика и транспортное обеспечение туризма. – Ташкент: Universitet nashriyoti, 2020. – 174 с.

<sup>6</sup> Клейнер Г.Б., Макаров В.Л., Кулешов В.В. Пространственное развитие России: институты, инфраструктура, инвестиции. – М.: Наука, 2013. – 420 с. Нижегородцев Р.М., Никфорова Л.Е. Оценка эффективности инфраструктурных проектов в транспортной системе регионов // Вопросы экономики. – 2017. – №9. – С. 43–56. Полухина А.Н., Порфирьев Б.Н. Региональные транспортные кластеры: проблемы формирования и функционирования. – М.: ИНИП РАН, 2016. – 312 с.

**Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Mazkur dissertatsiya ishi TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari" ilmiy tadqiqot markazining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "Iqtisodiyotni barqaror rivojlantirishni ta'minlovchi ichki imkoniyatlarni aniqlash va zaxiralarni safarbar qilishning ilmiy-metodik asoslari" nomli fundamental ilmiy loyihasi va "Boshqaruvning markazlashtirmaslik sharoitida mintaqaviy rivojlanishni tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish" nomli amaliy loyihasi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini barqaror rivojlanish omili bo'lgan transport munosabatlari tizimini takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishning nazariy modeli va uning tadbirkorlikni rivojlantirishdagi rolini aniqlash;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish bozorining joriy holatini o'rganish, tahlil qilish va uning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash;

O'zbekiston Respublikasida sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini joriy holati va sohani rivojlanishining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari dinamikasini tahlil qilish;

sayyohlarga transport xizmatlarini taqdim etuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyatini baholash;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar faoliyatini boshqarishni optimallashtirish yo'llarini aniqlash;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sifatini oshirish bo'yicha ilg'or tajribalarini o'rganish va tahlil qilish;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishning iqtisodiy samaradorligini oshirish imkoniyatlarini aniqlash;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasida tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat siyosatini takomillashtirish uchun takliflar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida O'zbekiston Respublikasida sayyohlarga transport xizmatlar ko'rsatuvchi tadbirkorlik subyektlari faoliyati tanlangan.

**Tadqiqotning predmetini** sayyohlik transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxonalarning biznes jarayonlarini tashkil etish va boshqarishda vujudga keluvchi iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiyada umumiy ilmiy usullar, retrospektiv tahlil usullari, tizimli yondashuv, statistik tahlil, iqtisodiy va matematik modellash va prognozlash, grafik talqin, ekspert baholash usullari, samaradorlikni baholashning integral ko'rsatkichlarini hisoblash usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

uslubiy yondashuvga ko'ra "sayyohlik transport xizmatlari" tushunchasining iqtisodiy mazmuni xalqaro va mahalliy turistik harakatni ta'minlash maqsadida



sayyohlar va ularning yuklarini bir manzildan ikkinchisiga xavfsiz, qulay va samarali tarzda tashish bo'yicha ko'rsatiladigan transport xizmatlarining majmuasini turistik mahsulotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport infratuzilmasini diversifikatsiya qilish, mehmonxona va boshqa xizmat sohalari bilan kooperatsiyalashgan holda, mamlakatning turistik salohiyatini reallashtirish hamda undan barqaror iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan;

sayyohlik transport xizmatlarining rivojlanganlik darajasi va sifatini baholash uslubi egalik, foydalanish turi, funksional maqsadi, mulkchilik turi, rivojlanish darajasidan iborat beshta mezon asosida sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish infratuzilmasi tasnifini ishlab chiqish orqali takomillashtirilgan;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishda iste'molchilarning asosiy motivatsion omillari ta'sirini baholash xizmat sifati ( $I_{XS} = 0,45$ ), narxning maqbulligi ( $I_{NM} = 0,37$ ), haydovchi muomalasi ( $I_{HM} = 0,28$ ), xavfsizlik ( $I_X = 0,68$ ) omillarni o'zaro ta'sirini yaxlit indeks yordamida ifodalash orqali takomillashtirilgan;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishda xavfsizlik, haydovchi muomalasi va narx maqbulligi darajasini qamrab oluvchi ko'p omilli regressiya modeli yordamida 2027-yilga qadar transport korxonalari yillik daromadining prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijasi** quyidagilardan iborat:

turizm va transportning quyi tizimi sifatida turizmning transport infratuzilmasining konseptual apparatiga aniqlik kiritilib, sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishning hozirgi bosqichida sayyohlik tizimidagi rolga obyektiv baho berilgan;

Modern Cars MChJ va Trawell MChJ kompaniyalarida mijozlar uchun eng muhim bo'lgan determinantlar (xizmat sifati, xavfsizlik, haydovchi muomalasi va narx maqbulligi) aniqlanib, ularning mijozlar qoniqishiga ta'siri baholangan;

Modern Cars MChJ va Trawell MChJ kompaniyalarining kelgusidagi moliyaviy rejalashtirishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan turistlar soniga asoslangan daromadni prognozlash modeli ishlab chiqilgan;

transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi va ular salohiyatini rivojlantiruvchi xo'jalik yurituvchi subyektlar uchun rivojlantirish strategiyalarini ishlab chiqishda qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy taklif va tavsiyalar shakllantirilgan;

hududiy hokimiyat organlari tomonidan yechimlar va baholash vositalarining joriy etilishini asoslashga xizmat qiluvchi transport tizimlari samaradorligi va yangi dastur va loyihalarni amalga oshirish rejalari tavsiya etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi.** Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot jarayonida qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar bazasidan olinganligi, vakolatli vazirlik va idoralar tomonidan tasdiqlanganligi, aniqlangan ilmiy qoida va xulosalarning mavjud iqtisodiy nazariyalarga muvofiqligi, shuningdek, ularning samaradorligi xulosa, takliflar va tavsiyalarining mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotda sinovdan o'tkazilganligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan ilmiy-nazariy tavsifdagi takliflardan transport sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning metodologiyasini takomillashtirish masalalariga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsifdagi taklif va tavsiyalardan transport korxonalari tomonidan tadbirkorlarga sifatli xizmat ko'rsatish darajasini rivojlantirishni metodologik asoslarini takomillashtirish yo'llari va samarali transport xizmatini tashkil etishga xizmat qiluvchi qarorlar qabul qilish, oliy o'quv yurtlarida sohaga oid fanlar, xususan, "Logistika" va "Turizm" yo'nalishlarida tahsil oluvchi mutaxassislarni tayyorlash hamda darsliklar va o'quv qo'llanmalarini tayyorlashda ilmiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** O'zbekiston Respublikasida sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalar asosida:

uslubiy yondashuvga ko'ra "sayyohlik transport xizmatlari" tushunchasining iqtisodiy mazmunini xalqaro va mahalliy turistik harakatni ta'minlash maqsadida sayyohlar va ularning yuklarini bir manzildan ikkinchisiga xavfsiz, qulay va samarali tarzda tashish bo'yicha ko'rsatiladigan transport xizmatlarining majmuasini turistik mahsulotning ajralmas tarkibiy qismi sifatida hududlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, transport infratuzilmasini diversifikatsiya qilish, mehmonxona va boshqa xizmat sohalari bilan kooperatsiyalashgan holda, mamlakatning turistik salohiyatini reallashtirish hamda undan barqaror iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy ma'lumotlardan oliy o'quv yurtlari talabalari uchun tavsiya etilgan "Xalqaro logistika" nomli darslikni tayyorlashda foydadanilgan (Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti rektorining 2023-yil 14-iyuldagi 228-son buyrug'i). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida talabalarda mamlakatning turistik salohiyatini reallashtirish hamda undan barqaror iqtisodiy foyda olish imkoniyatlarini kengaytirish nuqtayi nazaridan takomillashtirilgan sayyohlik transport xizmatlari tushunchasi bo'yicha nazariy bilimlarni chuqurlashtirish imkoni yaratilgan;

sayyohlik transport xizmatlarining rivojlanganlik darajasi va sifatini baholash uslubi egalik, foydalanish turi, funksional maqsadi, mulkchilik turi, rivojlanish darajasidan iborat beshta mezon asosida sayyohlarga transport xizmati ko'rsatish infratuzilmasi tasnifini ishlab chiqish orqali takomillashtirish taklifi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasining 2025-yilning 14-iyuldagi 03-10-17-6363-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turizm va transportning quyi tizimi sifatida turizmning transport infratuzilmasining konseptual apparatiga aniqlik kiritilib, sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishning hozirgi bosqichda sayyohlik tizimidagi roliga obyektiv baho berish imkoni yaratilgan;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishda iste'molchilarning asosiy motivatsion omillari ta'sirini baholash xizmat sifati ( $I_{XS} = 0,45$ ), narxning maqbulligi ( $I_{NM} = 0,37$ ), haydovchi muomalasi ( $I_{HM} = 0,28$ ), xavfsizlik ( $I_X = 0,68$ ) omillarni o'zaro ta'sirini yaxlit indeks yordamida ifodalash orqali takomillashtirish taklifi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasining 2025-yilning 14-iyuldagi 03-10-17-6363-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Trawell" MChJ va "Modern Cars" MChJda sayyohlarga transport xizmat ko'rsatish uchun yangi transport vositalaridan foydalanish natijasida xarajatlarni tejash hisobiga MChJ daromadi 4,3 % va 2,9 % foizga oshishiga erishilgan;

sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishda xavfsizlik, haydovchi muomalasi va narx maqbulligi darajasini qamrab oluvchi ko'p omilli regressiya modeli yordamida 2027-yilga qadar ishlab chiqilgan transport korxonalari yillik daromadining prognoz ko'rsatkichlaridan "Trawell" MChJ va "Modern Cars" MChJning istiqbolni moliyaviy rejalashtirish jarayonlarida qo'llanilgan (Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzurida Turizm qo'mitasining 2025-yilning 14-iyuldagi 03-10-17-6363-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida "Trawell" MChJ va "Modern Cars" MChJda sayyohlarga transport xizmatlari ko'rsatishda xavfsizlik, haydovchi muomalasi va narx maqbulligi darajasining o'zaro muvofiq me'yoriy ko'rsatkichlarini ta'minlash orqali istiqbolda yillik daromadning yuqori hajmiga erishish imkoni asoslangan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta respublika va 5 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarini e'lon qilinganligi.** Tadqiqot mavzusi bo'yicha jami 13 ta ilmiy ish, shu jumladan, bitta monografiya, bitta darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan tavsiya etigan ilmiy jurnallarda 11 ta ilmiy maqola, shu jumladan, 4 ta mahalliy jurnal, shuningdek, 2 ta xalqaro va 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarning ma'ruza tezislari to'plamlarida chop etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tarkib topgan. Dissertatsiyaning umumiy hajmi 130 betni tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, Respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy ishning yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi va amaliyotga joriy qilinishi ochib berilgan, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, e'lon qilinganligi, tuzilishi va hajmi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiya "**Transport xizmatlari sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini**

**nazariy-uslubiy asoslari**” deb nomlangan birinchi bobida transport xizmatlarini tashkil etishning mohiyati va uning turizmga tutgan oʻrni yoritilgan. Transport xizmatlari sifatini baholash va uni yaxshilashda innovatsion texnologiyalardan foydalanishning oʻziga xos xususiyatlari keltirilgan. Transport xizmatlari sifatini yaxshilashning ilgʻor xorij tajribalari bayon etilgan.

Bugungi kunda xizmat koʻrsatish sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishning eng muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Jahon tajribasi aynan mazkur soha YaIMni shakllantirish, aholi bandligini taʼminlash, odamlarning hayot farovonligini oshirishda yetakchi oʻrin tutishini koʻrsatmoqda.

Servis sohasining jadal rivojlanishida qulay va samarali transport infratuzilmasi hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. 2025-yil fevral oyida oʻtkazilgan “Xizmat sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari” muhokamasiga bagʻishlangan yigʻilishda Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti quyidagilarni taʼkidladi: “2024-yil yakuni boʻyicha mamlakatimizda transport xizmatlari hajmi 8,6 foizga oʻsib, 145 trillion soʻmni tashkil etdi. Biroq bu koʻrsatkich yuqori iqtisodiy oʻsish surʼatlarini taʼminlash uchun yetarli emas”<sup>7</sup>. Ushbu bayonot soha rivojiga nisbatan yangi yondashuvlar va kompleks chora-tadbirlar zarurligini koʻrsatmoqda. Transport infratuzilmasining rivoji nafaqat servis sohasini, balki hududiy iqtisodiy faollikni va turizm hamda logistika tizimlarining samaradorligini oshirishda ham muhim rol oʻynaydi. Shu munosabat bilan Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan mamlakatimizda shaharlararo aviaparvozlar va temiryoʻl qatnovlarini koʻpaytirish, multimodal logistika markazlarini qurish, tranzit yuk tashish hajmini oshirish, shuningdek, yoʻlovchi tashish xizmatlarida, xususan, taksi sohasida qulayliklarni kengaytirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar belgilandi. Rejalashtirilgan bu islohotlar natijasida 2024-yilda transport xizmatlari hajmi 185 trillion soʻmga, ularning eksporti esa 2,3 milliard AQSh dollariga yetkazilishi mumkinligi prognoz qilinmoqda<sup>8</sup>.

Xizmatlar sektori ichida turizm eng yirik va eng tez rivojlanayotgan yoʻnalish boʻlib qolmoqda. Soʻnggi yillarda 90 dan ortiq davlatlar bilan xalqaro hamkorlik aloqalarining yaxshilangani sababli, xorijiy sayyohlar oqimi qariyb 4 barobarga oshdi. 2024-yil yakunida turizm xizmatlari eksporti 3,5 milliard AQSh dollarini tashkil etgani bu sohaning iqtisodiyotdagi ahamiyati ortib borayotganini yaqqol koʻrsatmoqda. Maʼlumki, transport xizmatini tashkil etishda sayohat qilish, tegishli maqsad va vazifalarni hamda sayohat muddatini belgilashda muhim hisoblanadi. Turistik resurslar maʼlum hududlar bilan bogʻlangan va ularning mashhurligi va foydalanish darajasi bunday hududlarning transport imkoniyatlari bilan belgilanadi.

Transport turizmni rivojlantirishning yetakchi omili sifatida taʼkidlanib, ijtimoiy muammolarni hal etish, aholining ishbilarmonlik, madaniy va turistik sayohatlarini yaxshilash, mamlakat ichida va xorijda madaniy almashinuvni rivojlantirishda transportning oʻrni beqiyosdir. Shuningdek, sayyohlikda foydalaniladigan transport xizmatlari umumiy transport xizmatlarining bir qismi

---


<sup>7</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil fevral oyida oʻtkazilgan “Xizmat sohaslarini rivojlantirish chora-tadbirlari” mavzusidagi yigʻilishi.

<sup>8</sup> Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil fevral oyida oʻtkazilgan “Xizmatlar sohasini rivojlantirish chora- tadbirlari” mavzusidagi yigʻilishi.

sifatida e'tirof etilsada, ma'lum bir jihatlari bilan farq qilishini ko'rishimiz mumkin. Sayyohlik transport xizmatining o'ziga xosligi shundaki, undan nafaqat sayyohlar, balki oddiy fuqarolar ham kundalik ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal qilishda, ya'ni yuklarni tashish, ishga va boshqa manzillarga borishda foydalanish imkoniyatlari mavjudligi haqida 1-rasmda keltirilgan.

Shundan kelib chiqqan holda, eng avvalo, "sayyohlik transport xizmatlari" tushunchasiga oydinlik kiritish talab etiladi. Mazkur ta'rif bo'yicha olimlarning fikr va yondashuvlari o'rganib chiqilib, "sayyohlikda transport xizmatlari" ta'rifiga qo'shimchalar kiritildi va takomillashtirildi. Turistik bozor talabini hisobga olgan holda biz "**Sayyohlik transport xizmatlari bu** – sayyohlarni yashash joyidan diqqatga sazovor joylarni ko'rishlari uchun turli transport vositalaridan foydalangan holda, bir yoki bir nechta sayohatchilarni va ularning yuklarini kerakli manzillarga eltish va qayta yashash manziliga yetkazish, shuningdek, turistik obyekt vazifasini ham o'tashi mumkin bo'lgan xizmatlar yig'indisidir", deb ta'rifladik.

Turizm va transport o'zaro chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab tarmoqlararo tizimlar hisoblanib, ularning ko'p bosqichli va tarmoqli tuzilishi global iqtisodiyotda muhim o'rin tutadi. Ushbu sohalar tashqi muhit va mavsumiy omillarga yuqori darajada bog'liq bo'lishi bilan birga, o'z navbatida, atrof-muhitga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, ular rivojlangan infratuzilma mavjudligini talab qiladi va inson omilining sezilarli ta'siriga duch keladi.



**1-rasm. Umumiy transport xizmati va turistik transport xizmatlarining farqli jihatlari<sup>9</sup>**

<sup>9</sup> Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Turizmning rivojlanishi bevosita transport infratuzilmasining holati va samaradorligiga bog'liq. Transport infratuzilmasi sayyohlar oqimini shakllantirish, turizm xizmatlarini rivojlantirish hamda iqtisodiy o'sish va hududiy integratsiyani qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Turizm sohasi rivojlangan davlatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, sifatli va zamonaviy transport infratuzilmasi mavjud bo'lgan hududlarda turistik faollik yuqori bo'lib, u iqtisodiy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Transport infratuzilmasi turistik mahsulotning ajralmas qismi bo'lib, uning sifati va samaradorligi sayyohlarning tanloviga ham ta'sir qiladi. Shuningdek, yaxshi rivojlangan transport tizimi yangi turistik yo'nalishlarni shakllantirish, tashrif buyuruvchilarning safar vaqtini tejash, logistika jarayonlarini optimallashtirish va transport harakatining ekologik barqarorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Transport xizmatlari turizmda asosiy xizmat turi sifatida e'tirof etiladi. Sayyohlik transport xizmati tur bahosi tarkibida asosiy ulushni tashkil qiladi. Sayohatning davomiyligi va masofasiga qarab, bu ulush (ko'p hollarda) 20 %dan 60 %gacha bo'ladi<sup>10</sup>. Sayohat paytida sayyohlarni tashish uchun turizm tashkilotlari tomonidan turli xil transport turlari taklif etiladi.

Mavjud turistik va transport infratuzilmasi ta'riflarini tahlil qilgan holda, ushbu tushunchalarga mualliflik ta'rifi ishlab chiqildi hamda turizmning transport infratuzilmasi tizimi tavsiflandi.

**Sayyohlik transport infratuzilmasi** – bu turistik faoliyatni tashkil etish va amalga oshirishda ishtirok etuvchi transport vositalari, transport obyektlari, transport xizmatlari, transport yo'llari va marshrutlari, transport obyektlari hamda vositalarida joylashgan servis va turizm obyektlari, shuningdek, turizmni muvofiqlashtirish uchun ishlatiladigan aloqa va axborot vositalarini o'z ichiga olgan kompleks tizimdir.

Sayyohlik transport infratuzilmasi 5 ta asos bo'yicha tasniflangan, bu esa transport infratuzilmasining rivojlanish darajasi va sifatini baholash imkonini beradi.

Sayyohlik transport infratuzilmasining o'ziga xosligi shundaki, u faqat turistlar tomonidan emas, balki oddiy fuqarolar tomonidan ham ijtimoiy-iqtisodiy ehtiyojlar: shaxsiy safarlar, yuk tashish va boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Sayyohlik transport infratuzilmasining 7 ta noyob xususiyati aniqlangan:

ko'p funksiyalilik – turli vazifalarni bajarish imkoniyati;

kommunikativlik – hududlararo aloqani ta'minlash;

dinamiklik – doimiy o'zgarish va moslashuvchanlik;

ko'p omillilik – turli tashqi va ichki omillarga bog'liqlik;

shikastlanish xavfi – yo'lovchilar uchun xavf-xatar mavjudligi;

hamjihatlik – transport va turizmning o'zaro chambarchas bog'liqligi;


moslashuvchanlik – foydalanuvchilarning ehtiyojlariga moslashish qobiliyati.

Transport obyektlari va vositalari faqatgina sayyohlik infratuzilmasining bir qismi bo'lib qolmay, transport turlarida sayyohlar uchun joylashuv maskani sifatida xizmat qilishi, shahar va mintaqalarning ramzi yoki diqqatga sazovor joyi bo'lishi, mustaqil turistik qiziqish obyekti sifatida e'tirof etilishi, to'liq huquqli turistik resurs

---

<sup>10</sup> <https://buklib.net/books/28043/>

sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bu yondashuv transportni shunchaki harakatlanish vositasi emas, balki sayyohlik tajribasining muhim qismi sifatida ko'rishga imkon beradi.



**2-rasm. Sayyohlik transport infratuzilmasi klassifikatsiyasi<sup>11</sup>**

Yuqoridagi 2-rasmda sayyohlik transport infratuzilmasi klassifikatsiyasi keltirilgan.

Klassifikatsiya uchun asoslar quyidagi belgilarga ko'ra muallif tomonidan taklif etilgan:

- hududiy qamrov (xalqaro, milliy, hududiy);
- mulk shakli (davlat, xususiy, davlat-xususiy);
- foydalanish turi (ommaviy turizm uchun, individual turizm uchun, ijtimoiy foydalanish uchun);
- rivojlanish darajasi (rivojlangan, rivojlanayotgan, rivojlanmagan);
- funksional maqsad (transport vositalari, transport yo'llari va yo'nalishlari, transport xizmatlari, aloqa va axborot vositalari, mehnat resurslari, transport ob'ektlari va transport yo'llari yaqinidagi servis va turizm ob'ektlari).

Sayyohlik transport infratuzilmasini klassifikatsiya qilish bir nechta muhim maqsadlarga xizmat qiladi:

1. Rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish – Turizm transport infratuzilmasini turlarga ajratish orqali qaysi yo'nalishlar yaxshi rivojlangan, qaysilari esa qo'shimcha investitsiyalar yoki optimallashtirish talab qilishini aniqlash mumkin.

2. Tahlil va rejalashtirish – Sayyohlik oqimlarini samarali boshqarish uchun

<sup>11</sup> Nazariy o'rganishlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

turli transport turlarining (avtobuslar, taksilar, ijaraga beriladigan mashinalar, temir yo‘l va h.k.) holati va ulardan foydalanish darajasini baholash kerak.

3. Xizmat sifatini oshirish – Sayyohlik transporti xizmatlarini tizimli ravishda ajratib chiqish orqali mijozlarga moslashtirilgan xizmatlarni taklif etish, qulaylik darajasini oshirish va mijozlarning qoniqish darajasini oshirish mumkin.

4. Sayyohlik strategiyalarini optimallashtirish – Sayyohlar qaysi transport vositalaridan ko‘proq foydalanishini tahlil qilib, xizmatlarni takomillashtirish va mijozlarga mos yechimlar taklif qilish mumkin.

Respublikamizda transport xizmatlari iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, u nafaqat aholiga qulay harakatlanish imkonini yaratadi, balki biznesning rivojlanishiga ham katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ushbu soha tadbirkorlik subyektlari uchun istiqbolli bo‘lib, davlat tomonidan huquqiy asoslar orqali tartibga solinadi. Transport xizmatlarini tartibga solish jarayonida tadbirkorlarning huquq va majburiyatlari, litsenziyalash talablari, soliqqa tortish tizimi va xavfsizlik choralari asosiy o‘rin tutadi. Sohani rivoji maqsadida kun sayin yangi qaror va farmonlar imzolanmoqda, yangidan-yangi maqsadlar qo‘yilmoqda. Mamlakatimiz Rahbari tomonidan qabul qilingan “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi”da ham transport sohasida alohida maqsadlar belgilangan<sup>12</sup>.

Dissertatsiya mavzusi yo‘lovchi tashish bilan bog‘liq bo‘lganligi tufayli, ushbu doiradagi qonunchilikni chuqurroq tahlil qilishga qaror qildik. O‘zbekiston Respublikasida yo‘lovchi tashish faoliyati “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi qonun, “O‘zbekiston Respublikasida avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini hamda avtobuslarda yo‘lovchilar tashish xavfsizligini ta‘minlashga doir talablarni tasdiqlash” haqidagi qaror, “Avtomobil transportida yo‘lovchilarni va yuklarni shaharda, shahar atrofida, shaharlararo va xalqaro yo‘nalishlar bo‘yicha tashish faoliyatini litsenziyalash yuzasidan davlat xizmatlari ko‘rsatishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida”gi kabi qarorlar mavjud. Sayyohlarga transport xizmati ko‘rsatish jahonda turizmning rivojlanishi bilan bevosita bog‘liqdir. Sayyohlik sohasi rivojlangan davlatlar sayyohlariga qulay va sifatli transport xizmatlarini taqdim etish orqali o‘z iqtisodiyotlarini yanada mustahkamlab, sayyohlik jozibadorligini oshiradi.

Biz davlatlar tajribasini o‘rganish bosqichida bir nechta davlatlarning sayyohlik transporti borasida amalga oshirgan ishlarini ko‘rib chiqdik. O‘zbekiston sayyohlik transportini rivojlantirishda Yaponiya tajribasidan foydalanishni taklif sifatida keltirdik. Yaponiya dunyodagi eng rivojlangan, aniqlik va texnologik integratsiyaga asoslangan sayyohlik transport tizimiga ega davlatlardan biridir. Mamlakatda transport nafaqat aholi, balki millionlab ichki va xorijiy sayyohlar ehtiyojini qamrab oluvchi xizmat sifatida rivojlangan. Bu tizim orqali sayyoh o‘zining vaqti, byudjeti va marshrutiga mos transportni tanlashi mumkin.

Dissertatsiyaning **“Sayyohlarga transport xizmatlari ko‘rsatish sohadagi tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida,

---

<sup>12</sup> [https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu\\_id=144](https://president.uz/oz/pages/view/strategy?menu_id=144)



Respublikamizdagi transport xizmati ko'rsatish sohasining hozirgi holati tahlil qilingan.

### 1-jadval

#### **Qatnov turlari bo'yicha umumfoydalanadigan transportning yo'lovchi aylanmasi (%da)<sup>13</sup>**

<b>Yo'nalish</b>	<b>2020</b>	<b>2021</b>	<b>2022</b>	<b>2023</b>	<b>2024</b>
Xalqaro yo'nalish	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Temir yo'l	5,0	0,4	0,9	1,2	1,5
Avtomobil	-	-	14,9	12,5	11,6
Havo yo'l	95,0	99,6	84,2	86,3	86,9
Shaharlararo yo'nalish	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Temir yo'l	80,5	67,7	54,8	57,1	58,2
Avtomobil	12,4	24,9	35,9	34,6	31,4
Havo yo'l	7,1	7,4	9,3	8,3	10,4
Shahar atrofi yo'nalishi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Temir yo'l	42,0	39,4	5,7	4,8	6,4
Avtomobil	58,0	60,6	94,3	95,2	93,6
Shahar ichi yo'nalishi	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
Avtomobil	87,1	67,3	84,6	83,0	78,2
Tramvay	0,2	0,3	0,1	0,2	2,1
Trolleybus	0,4	0,6	0,2	0,2	1,4
Metropoliten	12,3	31,8	15,1	16,6	19,7

2020-yildan 2024-yilgacha tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi qo'shilgan qiymatning ortishi sezilarli. 2020-yildagi 41,198 million so'mdan 2024-yilda 84,104 million so'mgacha o'sdi. Tashish va saqlash sohasida asosiy fondlar ko'paymoqda, bu investitsiyalarni va infratuzilma o'sishini ko'rsatadi. Axborot va aloqa sohasida ham fondlar o'sishi kuzatilmoqda, lekin unchalik tez emas.

Tashish va saqlash sohasiga kiritilgan investitsiyalar har yilda ko'payib bormoqda, bu sohaning rivojlanayotganligini ko'rsatadi. Axborot va aloqa sohasida 2022-yildan 2023-yilgacha investitsiyalarning pasayishi ko'zga tashlanadi. Transport xizmatlari hajmi va aloqa hamda axborotlashtirish xizmatlari hajmi 2020-yildan 2024-yilgacha har ikkalasi ham ortdi, bu sohalarning ahamiyati oshayotganini ko'rsatadi. Tashish va saqlash sohasidagi o'rta yillik xodimlar soni 2020-yilda eng yuqori bo'lsa-da, 2021-yilda nisbatan pasaydi va 2024-yilda yana pastroq ko'rsatkichga ega bo'ldi. Aloqa sohasidagi xodimlar soni esa yildan-yilga ortib bormoqda.


Yuqoridagi 1-jadvalni tahlil qiladigan bo'lsak quyidagi xulosalarga kelimiz: Xalqaro yo'nalishda havo yo'li orqali yo'lovchilarning ulushi yuqori bo'lib, 2020-yildan 2024-yilgacha sezilarli o'zgarishlar mavjud. Temir yo'lning ulushi esa kamayib bormoqda. Shaharlararo yo'nalishlarda temir yo'l yo'nalishining ulushi pastlashdi, avtotransportning ulushi esa ortib bormoqda, bu yo'nalishda avtomobil

<sup>13</sup> Stat.uz saytining hisobotlari asosida maullif tomonidan ishlab chiqildi.

transportiga qiziqish oshayotganini ko'rsatadi. Shahar atrofi yo'nalishida esa avtomobillar, asosan, shahar atrofi transportida asosiy rolni o'ynaydi, bu esa shaharlararo va shahar ichidagi transport tizimlarining o'zaro aloqasini ifodalaydi. Shahar ichi yo'nalishida avtomobil transportining ulushi yuqori, lekin tramvay va trolleybus xizmatlari jismoniy jihatdan cheklangan ekanligini ko'rsatadi.

Eng katta yo'lovchi tashish hajmi Toshkent shahrida (250 mln yo'lovchi). Bu hudud aholining zichligi va transport tizimining rivojlanganligi bilan bog'liq. Samarqand va Farg'ona hududlari 180 mln va 160 mln yo'lovchi tashish bilan yuqori ko'rsatkichga ega. Bu hududlar turistik markaz bo'lib, aholining ko'p harakatlanishi bilan ajralib turadi. Buxoro va Xorazmda yo'lovchi tashish hajmi nisbatan kamroq (120 mln va 110 mln). Bu hududlarda transport tarmog'ining intensivligi pastroq.

Quyidagi 3-rasmda so'nggi yillarda mamlakatimizga tashrif buyurgan sayyohlar soni o'sish holatini ko'rishingiz mumkin, bu esa mazkur sohaga xizmat qiluvchi tadbirkorlik sohalarini rivojlantirish dolzarbligini oshiradi (3-rasm).



**3-rasm. O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar hajmi (2020–2024-yillar kesimida)<sup>14</sup>**

Sayyohlarga transport xizmati ko'rsatishni yaxshilanishi juda ko'plab faoliyatlarning o'sishiga zamin yaratadi. Shu sohani yaxshilash orqali bir qancha sohalarda ijobiy o'zgarishga erishish mumkin.

Sayyohlikka xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik rivojlanishi bir qator turdagi tadbirkorlik faoliyatlari bilan bevosita bog'liq. Ushbu faoliyatlar turizm infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va sayyohlarga qulayliklar yaratish maqsadida amalga oshiriladi. Quyida sayyohlarga transport ko'rsatish sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish orqali qaysi tadbirkorlik faoliyatlarida ijobiy o'sishga erishish mumkinligini o'rganamiz. Bu nafaqat iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi, balki mahalliy aholini yangi imkoniyatlar bilan ta'minlaydi va xalqaro sayyohlar uchun mamlakatning jozibadorligini oshiradi. Sohadagi tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish har tomonlama dolzarblik kasb etmoqda va turizm transport sohasidagi tadbirkorlik faoliyatini faollashtirish

<sup>14</sup> Turizm qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi..

omillarini ko‘rib chiqish ahamiyatlidir. Sayyohlarga transport xizmatlarini takomillashtirish nafaqat kompaniyaning moliyaviy holatini yaxshilaydi, balki mijozlarning qoniqishini oshirish, turizm sohasini rivojlantirish va ekologik barqarorlikni ta‘minlash kabi muhim natijalarga olib keladi. Shu bois bu jarayon biznes uchun ham, mamlakat iqtisodiyoti uchun ham katta ahamiyatga ega.

Shu sababli biz, “Modern cars” va “Trawell” MChJ faoliyatini tahlil qilish orqali korxona faoliyatini rivojlantirishga erishmoqchimiz. Bu maqsadda, kompaniya xizmatidan foydalangan sayyohlardan so‘rovnoma olish orqali ularning transport faoliyati talabi va xizmat sifatidan qoniqish darajasini tahlil qildik.

Maqsadga erishish uchun har ikkala kompaniya tomonidan xizmat ko‘rsatilgan mijozlar o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazildi, so‘rovnoma 2024-yilning 12-martidan 14-dekabrigacha korxona xizmatidan foydalangan sayyohlar tomonidan to‘ldirildi. Jami 830 ta so‘rovnoma to‘plandi, ularning 400 tasi “Trawell” MChJ qolgan 430 tasi “Modern Cars” MChJ mijozlariga tegishli.

So‘rovnoma orqali qanday natijalarga erishiladi:

sayyohlarning transportga bo‘lgan talabini aniqlash sayyohlar Toshkentga qaysi transport vositasi bilan keladi?

sayyohlar shaharda qanday transport vositalaridan foydalanadi?


sayyohlar transport tanlashda qaysi omillarni muhim deb biladi?

Ushbu savollarga javob olish orqali transport xizmatlarini to‘g‘ri joylashtirishga ega bo‘lishimiz mumkin. Agar sayyohlarning aksariyati samolyot bilan kelsa, aeroport yaqinida transport xizmatlarini kuchaytirish kerak bo‘ladi. Transport turini kengaytirish – agar ko‘pchilik taksidan foydalansa, premium taksi yoki shaxsiy haydovchi xizmatlarini taklif qilish mumkin.

Sayyohlarning qoniqish darajasini baholashda:

Sayyohlar transport narxi, xavfsizligi, qulayligi haqida qanday fikrda?

Transport vositalarining tozaligi va haydovchilarning muomalasi qanday baholanmoqda?



**4-rasm. “Trawell” MChJ mijozlarining yosh, jins bo‘yicha tarkibi<sup>15</sup>**

<sup>15</sup> O‘tkazilgan so‘rovnoma asosida muallif ishlanmasi.

Sayyohlar transport xizmatlarini boshqalarga tavsiya qiladimi? Bu savollarga javob topish orqali xizmat sifatini oshirishga erishamiz. Sayyohlar qaysi jihatlardan eng ko‘p norozi ekanini aniqlab, shunga qarab xizmatlarni yaxshilash mumkin. Brend obro‘sinini oshirishga erishish mumkin, agar mijozlar xizmatlardan mamnun bo‘lsa, ular boshqalarga tavsiya qiladi, bu esa ko‘proq mijozlarni jalb qiladi.

Yuqoridagi 4-rasmda esa kompaniya xizmatlaridan foydalangan mijozlarni yosh va jins bo‘yicha tahlil qildik. Unga ko‘ra, 57,7 % erkak, 42,3 % ayol ekanligi kuzatildi. Bu ko‘rsatkich transport xizmatlarining ko‘proq erkaklar tomonidan talab qilinishini yoki erkaklar safar faoliyatida nisbatan faolroq ekanligini ko‘rsatadi. Shuningdek, ayol mijozlar salmog‘i ham yuqori bo‘lib, xizmatda xavfsizlik, qulaylik va madaniyat elementlariga e‘tibor berish zarurligini bildiradi.

Respondentlarning 41,2 % 18-29 yosh oralig‘idagi, 26,8 % 30-39 yosh, 19,2 % 40-54 yosh toifasiga mansub. Bu natijalar shuni ko‘rsatadiki, transport xizmatining asosiy auditoriyasi – yosh va mehnatga layoqatli sayohatchilardir. Ushbu guruhlar uchun raqamli, qulay va tezkor xizmatlar dolzarb hisoblanadi.

